ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 1

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 29.01.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 29.01.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 29.01.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Globallashuv jarayonlarida o‘zbek tilining tutgan o‘rni 7

FAYZIYEVA XADICHA CHORUYEVNA
Boysun-Sho‘rchi o‘zbek shevalarida
qon-qarindoshlikni bildiruvchi atamalar 11

ШУКУРОВ АБДУЛАХАД АХМАДОВИЧ
Поэтик матнда форс-тожикча
ўзлашмаларнинг қўлланилиши..... 15

SIDDIQOV JAHONGIR NOSURULLOYEVICH
Ichki imkoniyat asosida yasalgan
ergonimlarning lingvistik tadqiqi..... 18

HAQBERDIYEVA SAGINA SHOMUROT QIZI
“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan
dizayn terminlari haqida mulohazalar..... 22

XAYDAROVA DILNOZA
Milliy qandolatchilik terminologiyasiga doir..... 25

BOYNAZAROV ISLOM
Development of some philosophical
terminology in uzbek and english languages..... 28

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

КУРБОНОВ АБДУМАЛИК
Навоий ижоди бўйича илмий қарашлар
(Айшеҳан Дениз Абикнинг тадқиқоти мисолида)..... 32

DJURABAYEVA ZAMIRA AXMEDOVNA
Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va
faoliyati – ibrat maktabi 35

NIGORA ESANOVNA ERKINOVA
Eshqobil Shukur she’rlarida badiiy san’atlar va
ularda leksik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari..... 38

PROFESSOR JABBOR OMONTURDIYEV..... 42

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RLARIDA BADIIY SAN'ATLAR VA ULARDA LEKSIK BIRLIKLARNING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

Nigora Esanovna Erkinova,
Oriental universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi

O'zbek mumtoz adabiyotida badiiy san'atlardan foydalanish katta o'ringa ega bo'lgan. Shoirning mahorati badiiy san'atlardan foydalana olish darajasiga qarab ham baholangan. Bu qaysidir darajada shaklbozlikka olib kelishi mumkin. Ammo she'r mazmunining kuchi va ta'sirchanligi uning shakliga yuqori darajada ishlov berilishiga bog'liq qilib qo'yilgan. Mazkur jihat o'zbek mumtoz adabiyotining mantiqiy va uzviy davomi bo'lgan zamonaviy o'zbek she'riyatida ham o'z o'rniga ega. E. Shukur ijodidagi badiiy san'atlar ham buni ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda bir qancha ijodkorlar tanosub san'atidan unumli foydalanishgan. She'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub deb ataladi. Masalan, Ogahiy qalamiga mansub

Soz bazmidin navo ushshoqg'a maxsus o'lub,
Changdek faryodlar mahzun-u dilozorimga xos

baytida musiqa san'atiga oid **soz, navo, ushshoq, chang, bazm** so'zlari jamlangan. Ular vositasida shoir oshiq ichki kechinmalarini jozibali bir tarzda aks ettirishga erishgan[1].

Tanosub san'atining qo'llanilishiga E. Shukurning she'riyatidan ko'plab misollar topish mumkin. Masalan, "Eng qadimgi qoshiq" she'rini tahlil qilar ekanmiz, aynan shu jihatlarni kuzatamiz.

Yulduzlar titrar, hayron,
Osmonning holiga voy.
Qora kenglikdan kechib,
Qiz ko'ksiga qo'ndi oy.

She'rda koinot bilan aloqador *yulduzlar, osmon, qora kenglik (tun, tungi osmon), oy* so'zlari qo'llangan. Ushbu so'zlar bir-biriga yaqin tushunchalarni hosil qilish barobarida ijodkorning tasvir mahorati kengligining guvohi bo'lamiz.

Qadrdon tuyg'ular, ***Hayo*** *va* ***Imon****,*
Oqibat*,* ***Qanoat****,* ***Diyonat****,* ***G'urur****.*
Bu ko'hna yo'llardan borurlar qayon?
Har birin yuzida hovuch-hovuch nur...

Yuqoridagi misralarda ham tanosub san'ati aks etgan. Keltirilgan banddagi *Hayo, Imon, Oqibat, Qanoat, Diyonat, G'urur* tuyg'ulari tanosub san'atini hosil qilgan[2].

Menda
Yer-u osmon, oy va quyosh bor edi,
Tomchi kulgu, ko'za ko'z yosh bor edi,
Yurak degan gultug'ar tosh bor edi...

Bu o'rinda dastlabki misrada biri-biriga yaqin *yer, osmon, oy, quyosh* kabi tushunchalar tanosub, ayni vaqtda, *yer-osmon, oy-quyosh* tazod san'atini hosil qilyapti. Ikkinchi misrada esa *kulgu, ko'z yosh* orqali ham tazod san'atidan foydalanilgan.

Mendan
Dasht-u dala, tog' ila daryoni top,
Bu dunyoga o'xshamas dunyoni top,
Hirot birla Samarqandu Ko'niyoni top.

"Qaldirg'ochning ko'z yoshlari" she'rida *dasht, dala, tog', daryo* kabi so'zlar orqali tanosub san'ati hosil qilinadi. Bu *Hirot, Samarqand, Ko'niyo*, ya'ni shaharlar bilan bog'liq tanosub. Aftidan, bu she'rda yashirin tanosub san'ati ham mavjud. Sababi, bu o'rinda, Hirot shahri orqali A. Navoiy, Samarqandni tilga olish vositasida Imom Buxoriy (Samarqandga dafn etilgan), Ko'niyo shahri orqali Jaloliddin Rumiyga (Qabri Turkiyaning Ko'niyo shahrida) ishora qilinyapti.

I. Ernazarova o'zining ilmiy tadqiqotida ushbu she'rga lingvistik jihatdan yodashib, shunday fikrlarni ilgari suradi: "... she'rning dastlabki o'nta bandi "Men" so'zi izohida kelsa, keyingi to'rtta bandi "Meni" so'zi izohida shakllangan, keyingi to'rtta bandi esa "Menga" so'zi izohida yozilgan, undan keyingi bandlar esa "Mendan" va "Menda" so'zlari izohi bilan bog'liq..." Shoirning mahorati bilan she'rda kishilik olmoshi va unga sintaktik shakl yasovchilarni qo'shish orqali innovatsion qurilish yaratilganligi va ijodkorning his-

[1] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 80.

[2] https://oyina.uz/kiril/article/1403

siyotlaridagi murakkablikni o‘zida aks ettirganligini ko‘rsatib o‘tadi[1].

“Takrir” (takrorlash) san’atini barcha badiiy she’riyat namunalarida uchratish mumkin. Takrir she’riyatda shoirning avvalgi misrada qo‘llagan so‘zi keyingi misralarda yana takror holda kelishi. Masalan:

Aylanar og‘ir-og‘ir,
Og‘ir-og‘ir falaklar.
Og‘ir-og‘ir silkinib,
Kuylaydilar teraklar. (“Sevgining bir kuni”)

Shoir birinchi misrada og‘ir-og‘ir so‘zini keyingi misralar boshida yana takrorlar ekan, oshiq tuyg‘ulari, hissiy kechinmalarini tasvirlashga harakat qiladi. She’rda *og‘ir-og‘ir, asta-asta, yengil-yengil, yonib-yonib, shirin-shirin* sodda hamda yasama so‘zlardan hosil bo‘lgan *baxtli-baxtli, dardli-dardli* takroriy so‘zlar qo‘llanib, takrir san’ati hosil bo‘lgan. Bu esa ma’noni ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qilgan.

…Shirin-shirin meni bor.
Shirin-shirin ta’biri:
Uning men-u seni bor.
Yashaysan baxtli-baxtli,
Dardli-dardli kutasan.
Dardli-dardli o‘zingga
Shivirlaysan: “Sevaman…” (“Sevgining bir kuni”)

Ba’zi misralarda mumtoz adabiyotdagi “tarse’” san’atining zamonaviy variantiga duch kelamiz. Quyidagi she’rda tarse’ san’ati (ohangdosh va qofiyalanuvchi so‘zlardan foydalanish) va takrir san’ati (bir so‘zning u kelgan ayni qatorda takrorlanishi) ham qo‘llangan. Bunda misralardagi yasama ***oy****bulutning* so‘zidagi asos ***oy****day,* ***kun****bulutning* so‘zining ***kun****day* tarzida takrorlanishi, *a,i* unli tovushlarning to‘liq mos kelishi natijasida ohangdoshlik yuzaga keladi. *Oybulutning- Kunbulutning, oyd****a****y- kund****a****y, yor****i****ldit****i****r****i****ldi* so‘zlaridagi unlilar ohangdoshligi, vazndoshligi jozibali musiqiylik yaratgan.

*Oybulutning orasidan oyd****a****y kelinlar kelar,*
*Kunbulutning orasidan kund****a****y kelinlar kelar.*
*... Tog‘larimning toshlarida tonglar yor****i****ldi,*
*Anduhimning yoshlaridan tunlar tir****i****ldi.* (“Xalq ohangida”)

E. Shukur ijodidan tarse’ san’atiga doir yana ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Quyida berilgan parchalarda ikki: *ko‘zidan-umridan*, *qum-ZUM* so‘zlarining o‘zaro qofiyalanib kelishi ham tarse’ga misol bo‘la oladi. *ZUM* hamda *O‘ZIM* ning bosh harflarda keltirilishi ma’noni sintaktik-stilistik jihatdan kuchaytiradi.

Sitilib ketmoqda ***ko‘zidan*** *yillar,*
Sitilib bitmoqda ***umridan*** *yillar.*
Meni... (“Qaldirg‘ochning ko‘z yoshlari”)
Menda
Bir ko‘za suv, bir sahro ***qum*** *bor edi,*
Mangulikdan adashgan ***ZUM*** *bor edi,*
O‘zim ichra boshqa O‘ZIM bor edi…. (“Qaldirg‘ochning ko‘z yoshlari”)

Odatda, she’riyatda o‘xshatish – “tashbih” eng faol qo‘llanuvchi badiiy san’at turi hisoblanadi. E. Shukur ijodida ham ushbu badiiy san’at alohida o‘rin tutadi:

Men endi gunohkorman,
Gunohimdan kech, gulim.
Bir qoshiq qonim bo‘lsa,
O‘n qadahda ich, gulim...(“Hamal ayvoni”)

Yuqoridagi misralarda kinoya tashbih mavjud. Shoir sevgilisini gulga o‘xshatadi va unga to‘g‘ridan to‘g‘ri “gulim” deb murojaat qiladi. Biz keltirgan misolda tashbih unsurlaridan faqat bittasi – mushabbihun bih (o‘xshayotgan narsa) saqlanib qolgan hamda kinoya tashbih hosil bo‘lgan. Taniqli adabiyotshunos olim A. Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” asarida tashbihi kinoya haqida: “She’riy ijodda tashbih qo‘llanilar ekan, ko‘pincha o‘xshatilayotgan narsa (mushabbih) nomi tushirib qoldiriladi-da, o‘xshatilgan narsa (mushabbihun bih) nomigina saqlanadi. Ammo mushabbihni, ya’ni nima o‘xshatilayotganini osongina aniqlash mumkin...” [2], – deydi. Ushbu san’at turi E. Shukur she’rlarida keng qo‘llanilgan.

Bulutlar qorlarning qo‘ynida uxlar,
Cho‘l qisirlar ayoz qamchilaridan.
Qirlar tun betiga ufurgan uxlar
Muzlaydi iztirob tomchilariday.
Cho‘pon holdan toydi... Yo‘l muncha uzoq...
Osmonlarga uchib ketganmi o‘tov?
Umidlar muzlaydi, muzlaydi titroq,
Ko‘nglida ayoli, bolalar – yettov.
Ko‘kyo‘tal tutganday ko‘karadi tun,
Adashgan nurlarning yo‘lini to‘sib.
Muzlayotgan cho‘pon yelkalaridan
Ulkan, oppoq bir tog‘ chiqmoqda o‘sib.
Cho‘pon yelkasida – tog‘ orasida,
Ikki qo‘llagancha, qaddin etib yoy,
Keng, bahaybat osmon tog‘orasida
Cho‘g‘ olib yugurib kelayotir oy. (“Najot”)

Ushbu she’rda bir necha o‘xshatishlar ishlatilgan: cho‘l sovug‘i- *qamchiga*, tun- *ko‘kyo‘tal*ga uchragan bemorga o‘xshatilgan. Osmon gumbazining *tog‘ora*ga, yulduzlarning *cho‘g‘*ga, oyning suzishi esa cho‘g‘ olib yugurib ketayotganga qiyoslanishi she’rga o‘zgachalik baxsh etgan. Mana shu o‘rinda tabiat qismlarini jonlidek qilib tasvirlash, aniqrog‘i, ularga jon ato qilish “tashxis” san’ati bo‘ladi: *bulutlar, qirlar* uxlaydi;

[1] Эрназарова И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – Б. 103-125.

[2] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.19.

o‘tov osmonga uchib ketadi; *tun* ko‘kyo‘tal tutgandek yo‘talaverib ko‘karib ketgan insonga o‘xshatiladi va tun jonlidek tasvirlanadi...

Quyidagi misolda baxmal chimildiq angrayib qolgan odamdek, yirtilgan to‘shak yig‘lagan kishidek tasvirlanib, tashxis san’ati hosil qilinadi:

*Baxmal **chimildiqlar** qoldi **angrayib**,*
*Yirtilgan **to‘shaklar yig‘ladi** yomon.*
(“Hamal ayvoni”)

Cho‘pon tilidan aytilgan quyidagi misralar tajohul ul- orif (bilib turib bilmaslikka olish) san’atiga misol bo‘la oladi:

Cho‘pon holdan toydi... Yo‘l muncha uzoq...
Osmonlarga uchib ketganmi o‘tov? (“Najot”)

Yo‘lning uzoqligi va manzili – o‘tovga yetib borishini o‘ylagan cho‘pon o‘ziga o‘ziga bilib turib: “O‘tovim ko‘rinmaydi-ya, nima u osmonlarga uchib ketdimi?”- deya savol qo‘yadi. Vaholanki, o‘tovi uzoqda mavjudligi va yo‘lning uzunligi uni charchatganini shu usulda ifodalaydi.

Yana tashbihlarga murojaat qilamiz:

O, uyatchan namozshomgullar,
She’rning dilbar singilchalari...
Qalbni suyang xayrixoh qo‘llar,
Shom gullari – tun darchalari... (“Hamal ayvoni”)

Namozshomgullar kunduzi ochilmasligi sababli ularga uyatchanlik sifati berilyapti. “She’rning dilbar singilchalari” deb atalyapti, tun darchalariga o‘xshatilyapti. Namozshomgullarning tunda ochilishi tunning darchalaridek deyilmoqda.

Dala o‘rtasida yolg‘iz bir so‘qmoq
Ketmoqda boshiga ko‘tarib seni.
Oltin mevalarin uzatar chaqmoq,
Osmon sochib tashlar gavharlarini.
(“Ertaklar dalasi”)

So‘qmoqda ketayotgan odamni yo‘l go‘yoki boshiga ko‘targan deb yozganda, bu seni (she’rni o‘qiyotgan kishini) ulug‘laydi degan ma’noni bildiradi. Chaqmoq chaqqandagi yorug‘lik oltin mevalarga, yulduzlar esa gavharlarga o‘xshatilgan.

Xazon rutubati qoraytirgan yer
Yuziga maysadan tortadi chimmat.
(“Hayotga qasida”)

E. Shukur she’rlarida tashxisga ko‘plab namunalarni ko‘rishimiz mumkin.

Tun. Osoyish qo‘zg‘alib shamol
Yulduzlarni erkalab ovlar.
To‘xtamdagi suruvlar misol
O‘z mayliga mizg‘ir o‘tovlar. (“Cho‘lda”)

Shamol osoyishtalik bilan qo‘zg‘alib, yulduzlarni erkalagan holda ovlaydi. O‘tovlar esa to‘xtab dam olayotgan qo‘ylar podasi kabi mizg‘ib oladi. Tashxis san’ati orqali she’rxon manzarani ko‘z oldiga keltiradi.

Kechasi tashqari qorong‘i bo‘lgani uchun qora ko‘rinishdagi shamol esa qo‘shiq kuylaydi. Shoir fonus ila suhbat quradi, yomg‘ir esa uning ahvoliga achinib yig‘laydi:

Tashqarida zim-ziyo zulmat,
Qora shamol kuylaydi: g‘ir-g‘ir.
Uyda fonus menga hamsuhbat,
Derazamda yig‘laydi yomg‘ir.
(“Xilvatdagi yolg‘iz kulbada”)

Daraxt timsoli zamonaviy she’riyatda ko‘p uchraydi. E. Shukur ham daraxt timsoli orqali tashxisning go‘zal namunasini yaratgan:

Daraxtim, men yana qoshingga keldim.
Qaytmas kunlarimning xotiri uchun...
(“Hamal ayvoni”)

Bunda daraxt inson dardini tinglovchi shaxsga aylantirilyapti. Lirik qahramon xuddi har doim dardni daf qilib yurgan bir shaxsdek daraxtga munosabatda bo‘ladi. Bu misralar A.Oripovning “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” she’ridagi tashxis san’atiga misol bo‘luvchi quyidagi misrani yodga soladi:

Mensiz men ham, bahor ham g‘arib...

Bunda bahor g‘arib, bechora insonga o‘xshatiladi. Mavhum tushunchalarga ham jonli mavjudotlar harakatlarini berish tashxisning bir xususiyatidir.

Mumtoz adabiyotda mashhur shaxslar, timsollar hamda voqealar nomiga ishora qiluvchi talmih san’ati bor. Sevimli shoirimiz ushbu san’atga ham bir necha bor murojaat qilgan:

***Alpomish** bo‘lmadim, **Barchin** bo‘lmading,*
Yoriltoshlar bo‘lmadi hijron...
(“Sakkizinchi osmon” turkumidan)
... To‘yingda kiyik deb yurak so‘ydilar,
O‘rniga Go‘ro‘g‘li G‘iroti qoldi.
(“Sakkizinchi osmon” turkumidan)

Quyidagi bandda esa Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Imom al-Buxoriylar tilga olinib, talmih san’ati qo‘llaniladi.

***Yassaviy**[1] ni buyuk chillaga solgan,*
***Navoiy** qalbining oliy tuyg‘usi,*
***Buxoriy**[2] boshida oyday yuksalgan –*
Insonni insonday ko‘rmak orzusi. (“Orzu”)

Layli A. Navoiy va boshqa musulmon sharqi mualliflari tomonidan yuzdan ortiq yozilgan variantlarda yozilgan “Layli va Majnun” dostonining mashhur bosh qahramonlaridan biridir. Bu talmih san’atiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari Layli (yoki uning Majnun bilan bo‘lgan muhabbati) haqidagi arab cho‘llarida tarqalgan ovozalar “qayg‘ularga tutingan singil” deb nomlanadi. Bu o‘rinda “ovoza” jonlantirilib, “sin-

[1] Бухорий бу Имом Бухорий (яшаган йилларини интернетдан, википедиядан қаранг), машҳур ҳадисшунос олим, “Саҳиҳи Бухорий” номли ҳадислар тўплами муаллифи.

[2] Яссаввий – Аҳмад Яссавий (12 асрда яшаган). “Девони ҳикмат” номли асар муаллифи, сўфийликнинг яссавия тариқати асосчиси.

gil" – shaxs sifatida ko‘rsatilmoqda. Ayni jihat tashxis san'atiga misol bo‘la oladi.

Ma'lumki, tazod – zid ma'noli so‘zlardan hosil qilinadigan she'riy san'at. E. Shukur ushbu badiiy san'atni ham o‘z she'rlarida ko‘p qo‘llagan. Xususan, "Muvozanat" she'rida shoir tazodga bir necha bor murojaat qiladi:

*Bu **tor xona** emas, balki bu **osmon**,*
Yulduzlarni gulday sochmoqda shamol...

***…Mening** dunyolarim qancha **betartib**,*
***Sening** dunyolaring shuncha **sarishta**...*

…Pastda zulmat, bo‘shliq makon quribdi,
*Bu yerda **hayot**-u, u yoqda **zavol**...*
("Hamal ayvoni")

Bu o‘rinda *mening-sening*; *betartib-sarishta*; *hayot-zavol* kabi tazodlar keltirilmoqda. Ayni birinchi qaraganda, ko‘zga darrov tashlanmaydigan tazod ham mavjud bo‘lib, uning tazod ekanligi biroz fikr yuritgandan keyin hosil bo‘ladi. Bu *tor xona- osmon* so‘zlari bo‘lib, *osmon* so‘zi faqat samoni emas, balki badiiy ma'nodagi kenglikni anglatadi. Kenglik degan so‘z o‘rnida ishlatiladi.

Yoki:

Axir nimani ham ko‘rdi bu ko‘ngul,
*Gohida **sultonlik**, gohida **qullik**...*
("Hamal ayvoni")

***Yer** yig‘lar, **osmon** yig‘lar,*
Ko‘ksimda to‘nar ohim.
*Ko‘z – **do‘zax**, **rizvon** yig‘lar,*
Yig‘laydi siniq mohim.
("O‘zbek otaning 43-yildagi faryodlari")

Yer-osmon, *do‘zax-rizvon* (Jannat) so‘zlari orqali tazod yasaladi. Ammo *rizvon* so‘zi ma'nosi hozirgi o‘zbek o‘quvchisiga yaxshi tanish emas. Aslida, rizvon so‘zi o‘zbek tilidagi badiiy asarlardagi "ravzai rizvon" birikmasi orqali birmuncha tanish bo‘lishi mumkin. Shunda ham bu so‘zning ma'nosiga yetib borish murakkabroq. Shu tufayli bu o‘rinda tazod san'ati *do‘zax-rizvon* tazodi birdaniga ko‘zga tashlanmaydi. O‘quvchi lug‘atdan bu so‘z ma'nosining "Jannat" ekanligini aniqlaganidan keyingina bu ikki so‘z orasidagi tazodni topadi.

Quyidagi bandda *shodlik- g‘am*, *bo‘m-bo‘sh- gavjum* tazodlari ishlatiladi:

Hayot tarozisi – yelkamda xurjun –
*Bir ko‘z yengil **shodlik**, bir ko‘z og‘ir **g‘am**.*
*Bu dunyo **bo‘m-bo‘shdir**, men esa **gavjum**,*
Qushlarning qo‘nog‘i yetim qobirg‘am. ("Shoir")

Ayni vaqtda, shoir o‘z qovurg‘asini qushlar qo‘nalg‘asiga o‘xshatib, tashbih sana'tini hosil qilyapti.

Yer, *osmon* va *moh* (oy)ning yig‘lashi mubolag‘a san'ati bo‘la oladi. Bolalarini frontga urushga yuborgan otaning ahvoliga hatto yer-u osmon jismlari hamdardlik bildirib yig‘laydi. Bu tabiat qismlarining yig‘lashi yig‘ining o‘ta kuchliligini ko‘rsatishga xizmat qilib, mubolag‘a san'ati bo‘la oladi. Ham ayni jismlarni jonlantirish orqali tashxis san'ati hosil qilingan.

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy san'atlar kelgan she'rlarda turkiy so‘zlardan tashqari arab va fors tilidan tilimizga o‘zlashgan so‘zlar ham ko‘p ishtirok etsa, E. Shukur she'rlaridagi badiiy san'atlar, ko‘pincha, turkiy so‘zlar bilan bog‘lanib keladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va xalq qo‘shiqlari bilan bog‘liq, ularga yaqin bo‘lgan shoir she'rlarida qo‘llanilgan badiiy san'atlar ham shu xususiyat ortida originallik kasb etadi. E. Shukur she'riyatidan badiiy san'atlarga oid turli va ko‘p misollar topish mumkin. Albatta, gap ular miqdorida emas. Shoirning bitta kichik she'ri yoki she'riy parchasining o‘zidan bir necha badiiy san'atlarga oid bir necha misol topish mumkin. Mazkur holat she'rlarining mazmunan va shaklan ta'sirchanligini oshiradi. She'r matniga o‘zgacha joziba bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, E. Shukur she'rlarida xalqona, masalan, Surxon vohasi hayotiga xos baxshiyona ohang mavjud bo‘lib, bu shoir qo‘llagan badiiy san'atlarning o‘ziga xosligini ta'minlaydi.

Resume: Figures of speech were widely used in Uzbek classical literature. The poetic skill of the Uzbek poet E. Shukur can also be assessed through his use of figures of speech. The effect and power of the content of a poem depends on the treatment of its form. This feature also has its place in modern Uzbek poetry, which is a logical and organic continuation of Uzbek classical literature. The influence of folk poetic style is clearly expressed in the poetry of E. Shukur. This can be observed in the figures of speech he used in his poems, most of them are associated with Turkic words.

Резюме: В узбекской классической литературе было широко использованы фигуры речи. Поэтическое мастерство узбекского поэта Э.Шукура можно также оценивать через использования им фигур речи. Эффект и сила содержания стихотворения зависит от обработки его формы. Данная особенность имеет свое место и в современной узбекской поэзии, которая является логическим и органическим продолжением узбекской классической литературы. В поэзии Э.Шукура ярко выражена влияние народного поэтического стилья. Этого можно наблюдать в использованных им в его стихах фигур речи, большинство их связаны с тюркскими словами.